

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING SOHALAR BILAN ALOQADORLIGI

Abdullayeva Sanobar Berdiyevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Mamatqulova Navruza Shokirboy qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Obilov Abdumavlon Abdurofiq o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15115906>

Annotatsiya. *Axborot texnologiyalarining mahsuli inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladigan, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan axborot tizimini o'z ichiga oladi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad-jamiyat va insonning butun xayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarini samarali hal etishdir. Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sohalar bilan aloqadorligi to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy tibbiyot, ta'lim, talaba, tashxis.*

RELATIONSHIP OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES WITH SPHERES

Abstract. *The product of information technologies includes an information system that is used in all spheres of human activity, has an organizational, economic and social structure. Information systems and technologies are increasingly used in various spheres of human activity from year to year. The purpose of their creation, implementation and widespread use is to effectively solve the problems of informatization of society and all aspects of human life. This article provides information on the relationship of information and communication technologies with sectors.*

Keywords: *Information and communication technologies, modern medicine, education, student, diagnosis.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ С СЕКТОРАМИ

Аннотация. *Продукт информационных технологий включает в себя информационную систему, которая используется во всех областях человеческой деятельности и имеет организационную, экономическую и социальную структуру. Информационные системы и технологии с каждым годом находят все большее*

применение в различных областях деятельности человека. Целью их создания, запуска и повсеместного использования является эффективное решение задач информатизации общества и всей жизнедеятельности человека. В данной статье представлена информация о взаимосвязи информационно-коммуникационных технологий и отраслей.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, современная медицина, образование, студент, диагностика.

KIRISH: Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'z rivojlanish yo'lini tanlab rivojlanib bormoqda. Bu yo'l demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lidir.

Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini har tomonlama ravnaq toptirish, uning huquqiy-tashkiliy hamda moddiy-texnik bazasini izchil takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu tamoyil asosida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari salohiyati, yutuqlari, innovatsiyalari mamlakat rivoji, xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish, odamlar dunyoqarashini o'zgartirish, mamlakatimiz nufuzini jahonga yoyishga yo'naltirilayotgani diqqatga sazovordir. Axborot inqilobi va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda bilimlarning rolini tubdan o'zgartirib yubordi. Zamonaviy sharoitlarda asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, axborotlarni ishlab chiqish va iqtisodiyotni samarali amal qilishi uchun undan foydalanish hisoblanadi. Bunda asosiy ishlab chiqarish omili bo'lib bilimlar hisoblanadi va bu bilimlar ta'lim tizimi orqali yetkazib beriladi.

Zamonaviy o'quv-tarbiyaviy jarayoni asosida ta'lim oluvchi shaxsini barkamol rivojlantirish kontseptsiyasi yotadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi kunda hayotimizning barcha jabhalariga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday texnologiyalar axborotlashgan jamiyat negizini tashkil etib, kishilarning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilmoqda. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida undan foydalanishning global xarakterga egaligini keltirib o'tish mumkin. Shu bois, "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha jabhalariga tatbiq etishni takomillashtirish chora-tadbirlari ta'kidlangan. Bu esa, iqtisodiy tizimda mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA: Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

❖ O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

❖ Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodikjihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Ma'lumki, talabani shaxs, mutaxassis, fuqaro sifatida shakllantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talaba mustaqil fikrlashga, izlanishga, fan, texnika, madaniyat va jamiyatdagi fundamental va hayotiy amaliy muhim muammolarni hal etish jarayonidagi muloqotga tayyor bo'lishi kerak. Bunday talab zamonaviy mehnat bozori uchun raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda ta'lim siyosati va ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni zaruratini belgilab beruvchi jahon rivojlanishida umumiy tendentsiyalarni e'tiborga olishi lozim.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri nihoyatda yuqori bo'lib, bu, eng avvalo, mehnat unumdorligining o'sishi, raqobatdoshlik ta'minlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayishida namoyon bo'ladi. Pirovardida mamlakat eksport salohiyati yuksalib, tashqi bozorlarga chiqish, yangi savdo yo'nalishlarini ochish imkoniyati kengayib boraveradi.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'siri nihoyatda yuqori hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi hozirda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qisqa muddatli «Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish» aloxida fan sifatida talabalarga tegishli malakalarni egallashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshirishga, darslarning qiziqarli va mazmunli bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun pedagog-o'qituvchi nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi, balki, axborot uzatish va qayta ishlash mahoratini to'la egallashi, ayni paytda ta'lim oluvchilarda axborot madaniyatini shakllantira olishi lozim. Buning uchun pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik dasturiy vositalar-kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi.

Tibbiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari juda muhim o'rinni egallaydi.

Kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish, qog'oz sarfini kamaytirish va boshqaruv apparati faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Ma'muriy-boshqaruv va sog'liqni saqlash tizimi muassasalari va korxonalari xodimlariga kompyuter texnikasi va elektron hujjatlar aylanishi tizimi imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida rahbar va xodimlar malakasi va ko'nikmasini oshirish bo'yicha, kompyuter va axborot texnologiyalaridan va axborot havfsizligidan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

Uzoq masofadan turib bemorlarga diagnoz qo'yish, bemorlar sog'ligini saqlashga doir turli maslahatlar berish, meditsina sohasi mutahasislarining malakalarini aniqlash uchun elektron testlardan foydalanish va boshqa shu kabi ishlarni bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari asosida operatsiyaviy faoliyat darajasida quyidagi vazifalarni hal etish mumkin:

1. firma amalga oshiradigan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash;
2. firmadagi ishlarning ahvoli haqidagi davriy nazorat hisobotlarini tuzish;
3. istalgan joriy so'rovlarga javob olish va ularni qog'oz hujjatlari yoki hisoblari ko'rinishida rasmiylashtirish.

XULOSA: Bugungi «axborot asri» deb qaralayotgan davrda tegishli ma'lumotlar va axborotlarsiz jamiyat hayotining biror sohasida samarali faoliyat yuritish yoki ijobiy natijalarga erishish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, axborotni jamiyat hayotining tashkil etuvchi zaruriy omillardan biri deb aytish mumkin. Mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Zero, «Aynan zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko'lamda rivojlantirish mamlakatimiz va jamiyatimizning taraqqiyot darajasini ko'rsatadigan mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. TIBBIY TA'LIMDA VR TEXNOLOGIYA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1140-1144.
2. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.
3. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
4. Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134-138. Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF VALUE DIRECTIONS IN YOUTH. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, 1(1), 93-95.
5. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, X. S. (2023). Prospective Directions of Implementation of Modern Information Technologies in Education. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 7-11.
6. Berdiyevna, A. S., Akramovna, M. M., & Olmasovna, R. P. (2023). Research in the Process of Education of Medical Students Shaping Their Abilities. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 95-99.
7. Berdiyevna, A. S., Ilhomovna, M. Z., & Ogli, K. S. S. (2023). Modern methods of information exchange in polyclinic conditions. Genius Repository, 25, 16-20.
8. Abdullayeva, S., Maxmudova, Z., & Xo'jaqulov, S. (2023). MODERN METHODS OF INFORMATION EXCHANGE IN POLYCLINIC CONDITIONS. Modern Science and Research, 2(10), 304-310.
9. Berdiyevna, A. S. (2024). AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YONALISHLARI VA KELAJAGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 152-157.
10. Абдуллаева, С., & Раупова, Р. (2024). ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ ЎРГАНИШ-БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. Modern Science and Research, 3(1), 91-97.

11. Ilhomovna, M. Z., Berdiyevna, A. S., Shaxboz o'g'li, Y. T., & Mirkobilovna, S. R. (2023). The Importance of IT Technologies in Ultrasound Examinations. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(12), 121-125.
12. Berdiyevna, A. S., Sobirovich, S. O., & Ibrahimovna, N. N. (2023). Distinctive Features of the Distance Learning System in Medical Education: the Opportunity to Learn at a Convenient Time, Place and Environment. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(12), 33-38.
13. Mirkhaydarova, F. S., & Axmedova, F. S. (2023). FEATURES OF DIABETES MELLITUS IN HIV-INFECTED PATIENTS. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences*, 1(08), 271-275.
14. Абдуллаева, С. Б. (2023). ТИББИЁТДА ТАЛАБАЛАРГА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЖАРАЁНЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ФАН МОДУЛИНИ ЎРГАТИШДА МОТИВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(12), 27-30.
15. Berdiyevna, A. S., Eshmamatovna, D. N., & Shukhratovna, D. S. (2023). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MEDICAL DISEASE PREDICTION. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(3), 5-9.
16. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, K. S. (2024). The Role of it in the Field of Medicine, Use Of Computer Technology In Modern Diagnostic Methods. *Miasto Przyszłości*, 51, 162-166.